

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 233 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	



BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi

Mustaqil tadqiqotchi

ORCID 0009-0001-2743-9828

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklarda barqarorlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning ahamiyati yoritilgan. Raqamli bank xizmatlari, sun'iy intellekt, "big data" hamda blokcheyn kabi texnologiyalar moliyaviy xavfsizlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirishda muhim rol o'ynayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish orqali barqaror rivojlanish istiqbollari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, raqamli yechimlar, barqarorlik, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, moliyaviy texnologiyalar.

Abstract. This article explores the importance of digital technologies and innovative solutions in ensuring the sustainability of banks. It analyzes how digital banking services, artificial intelligence, big data, and blockchain technologies enhance financial stability, reduce operational costs, and improve customer satisfaction. The paper also highlights the prospects of sustainable development in Uzbekistan's banking sector through deep digital transformation.

Key words: banking system, digital solutions, sustainability, digital transformation, innovation, financial technologies.

Аннотация. В статье рассматривается значение цифровых технологий и инновационных решений в обеспечении устойчивости банков. Анализируется роль цифровых банковских услуг, искусственного интеллекта, больших данных и технологии блокчейн в повышении финансовой стабильности, снижении расходов и улучшении обслуживания клиентов. Также отмечены перспективы устойчивого развития банковского сектора Узбекистана через углублённую цифровую трансформацию.

Ключевые слова: банковская система, цифровые решения, устойчивость, цифровая трансформация, инновации, финансовые технологии.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti barqarorlik va innovatsiyalarga tayanmoqda. Iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslar tanqisligi va demografik o'zgarishlar global iqtisodiyot oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi hamda yashil (eko) yondashuvlarning keng tarqalishi mamlakatlar uchun katta imkoniyatlar ochmoqda.

Yevropa davlatlari "Yashil bitim" (European Green Deal) orqali 2050-yilga borib karbon neytral iqtisodiyotga o'tishni maqsad qilgan holda, bir qator raqamli va yashil yechimlarni joriy etib kelmoqda. Bino va infratuzilmalarni raqamli monitoring orqali energiya sarfini kamaytirish ishlari olib borilmoqda va buning natijasida energiya samaradorligiga erishilmoqda. Shuningdek, aqlli tarmoqlar (smart grids) yordamida energiya ta'minoti hamda iste'moli muvozanatlashib, bank va moliya institutlari ESG mezonlariga asoslangan kreditlarni ajratib kelmoqda.

AQShda esa "Inflation Reduction Act" (IRA, 2022-yil) orqali yashil texnologiyalarni rivojlantirishga 370 milliard dollar ajratilgan. Bu orqali yashil transport va sun'iy intellekt sohalari raqamlashtirilmoqda. Ya'ni, elektromobillarni ommalashtirish uchun soliq imtiyozlari joriy etilmoqda, energiya samaradorligini oshirishda esa SI asosida monitoring va prognozlash tizimlari rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston ham bu yo'nalishda faol harakat qilmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish, bank tizimini modernizatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda xalqaro tajribani o'rganish hamda uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu faoliyatda raqamli banklar ko'magidan foydalanish samarali o'zgarishlarga olib kelmoqda.

So'nggi yillarda UzCard, Humo, Payme, Click kabi to'lov tizimlari orqali aholi orasida raqamli to'lovlar ommalashmoqda. Barcha tijorat banklari o'z mobil ilovalarini ishlab chiqmoqda va ushbu ilovalar orqali hisob yuritish, kredit olish hamda to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Mazkur jarayonni yashil va barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish bilan integratsiya qilish O'zbekistonda barqarorlikka erishishni sezilarli darajada osonlashtiradi.



Sababi, raqamli bank foydalanuvchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda [16-rasm]. Bu esa raqamli bank xizmatlariga bo'lgan ishonchning oshib borayotganini va raqamli moliyaviy ko'nikmalarning rivojlanayotganini anglatadi. Agar bu xizmatlarga barqarorlikni ta'minlovchi yechimlar ham qo'shilsa, aholi ularni yuqori saviyada qabul qila oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, risklarni boshqarish samaradorligini kuchaytirish va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda [World Bank, 2022; IMF, 2023].

Schwab (2019) o'zining The Fourth Industrial Revolution asarida raqamli texnologiyalar — xususan, sun'iy intellekt, "big data" va blokcheyn tizimlari — moliyaviy tizimni yanada shaffof, ishonchli hamda barqaror qilish imkonini berishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar banklarning ichki boshqaruv tizimini optimallashtirib, xarajatlarni kamaytiradi va ekologik barqarorlikka ham hissa qo'shadi.

Mishkin (2020) esa banklar raqamli innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy shoklarga nisbatan bardoshlilikini oshirishini, shuningdek, mijozlarning moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirishini qayd etadi. Bu jarayon moliyaviy inklyuziya darajasining ortishiga, demak, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakat bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari faollashgan. Markaziy bankning 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, "Uzcard" va "Humo" kabi to'lov tizimlari, onlayn banking hamda mobil ilovalar orqali aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan. Bu esa bank tizimi barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD, 2021-yil) ham raqamli yechimlarning bank tizimidagi asosiy ustunliklarini quyidagicha ajratib ko'rsatadi:

1. operatsion xavflarni kamaytirish;
2. kredit riskini aniq baholash imkoniyati;
3. mijozlar bilan interaktiv aloqalarni mustahkamlash;
4. ekologik barqaror moliyaviy mahsulotlarni joriy etish imkoniyati.

Natijada, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli yechimlar banklarning moliyaviy va institutsional barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Raqamli transformatsiya nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda banklarda barqarorlikni ta'minlashda raqamli yechimlarning ahamiyati o'rganildi. Ma'lumotlar banklarning hisobotlari, ilmiy maqolalar va internet manbalaridan olindi. Qiyosiy hamda tahliliy usullar orqali O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar bilan solishtirildi. Natijada, raqamli texnologiyalar bank faoliyatining samaradorligi va barqarorligini oshirishi aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror raqamli bank xizmatlari — bu moliyaviy texnologiyalar asosida yaratilgan, uzoq muddatda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan bank xizmatlari tizimidir. Ular nafaqat tezkor va qulay bo'lishi, balki ekologik xavfsiz, ijtimoiy inklyuziv hamda moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi lozim.

Tijorat banklari tomonidan "Yashil energetika" dasturini amalga oshirish doirasida quyosh va shamol energiyasi loyihalariga investitsiyalar ajratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq yirik sanoat korxonalarini energiyani tejovchi uskunalar bilan jihozlash uchun kreditlar berish kabi amaliyotlarni keng joriy etish barqarorlik sari rivojlanayotganimizning muhim belgisi hisoblanadi. Bu jarayon yildan-yilga kengayib bormoqda.

Zamonaviy banklar mijozlarga ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus kredit turlari, imtiyozli foiz stavkalari hamda texnik yordam taklif qilmoqda. Masalan, "yashil ipoteka", "eko-kreditlar" va "karbon kreditlar" kabi moliyaviy vositalar jadal rivojlanmoqda.

O'zbekistonda yashil bank tizimi rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, hukumatning yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiyasi bu yo'nalishning istiqbolli ekanini ko'rsatmoqda. Yashil moliyalashtirish vositalariga talab ortib bormoqda. Xususan, quyosh panellari, shamol energiyasi va energiya samarador uylar uchun kreditlarga nisbatan aholining qiziqishi kuchaymoqda. Ushbu loyihalarni kengaytirishda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda.




Quyidagi texnologiyalar ekologik bank tizimini qo'llab-quvvatlashda:

- mobil banking orqali ekologik kreditlarga onlayn murojaat qilish;
- blokcheyn texnologiyasi yordamida karbon kreditlarini kuzatish;
- "big data" va sun'iy intellekt orqali mijozlarning energiya samaradorlik darajasini baholash;
- elektron hujjatlar aylanishi orqali qog'oz sarfini kamaytirish (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval. Zamonaviy banklarning ekologik loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha takliflari

№	Bank nomi	Moliyaviy vositalar	Tafsilotlar
1	Sanoatqurilishbank ¹	Yashil kreditlar	Ekologik infratuzilmalarni rivojlantirish uchun 5-7% imtiyozli stavkalar
2	Xalq Bank ²	Eko-ipoteka	Energiya tejamkor uylarni moliyalash-tirish uchun maxsus kredit dasturi
3	Asaka Bank ³	Karbon kreditlar	Karbon chiqindilarini kamaytirish loyihalari uchun maxsus kreditlar
4	Ipoteka Bank ⁴	Yashil ipoteka	Kam energiya sarf qiluvchi uylarni sotib olish uchun uzoq muddatli kreditlar
5	Agrobank ⁵	Qishloq xo'jaligi uchun eko-kreditlar	Ekologik toza qishloq xo'jaligi loyihalarini moliyalashtirish

Yashil Kreditlar Hajmi (2020–2024)



1-rasm. Tijorat banklarida ajratilgan yashil kreditlar hajmi⁶

O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda zamonaviy bank xizmatlari va ekologik yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi asosiy yo'nalishlarga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanayotgani bank tizimida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu sababli, davlat siyosatida raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi uyg'unlik alohida e'tiborga loyiqlik.

KATM (Kredit axborot-tahlil markazi) ma'lumotlari asosida mijozlarning ekologik jihatdan mas'uliyatli loyihalari tahlil qilinadi va shunga muvofiq kreditlar ajratiladi. Quyidagi grafikda O'zbekistonda barqaror (yashil) loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmining 2020–2024-yillar oralig'ida qanday o'sgani

1 <https://www.sqb.uz/oz/news/1266>

2 <https://xb.uz/oz/news/eco-ipo-program>

3 <https://asakabank.uz/uz/page/carbon-loans>

4 <https://ipoteka.uz/uz/news/green-mortgage>

5 <https://agrobank.uz/uz/news/eko-loans>

6 www.katm.uz saytida berilgan ochiq ma'lumotlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



ko'rsatilgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich 300 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 1,1 trln so'mga yetgan. Bu o'sish yashil iqtisodiyotga bo'lgan e'tibor ortganini hamda banklarning ekologik loyihalarni moliyalashtirishga tayyorligini ifodalaydi.

Bugungi kunda banklar sun'iy intellekt, "big data" va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalar orqali ekologik kreditlash tizimlarini yanada shaffof, tezkor va samarali qilish imkoniga ega bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat kredit ajratish jarayonini soddalashtiradi, balki loyihalarning ekologik samaradorligini baholash va monitoring qilishda ham katta foyda keltiradi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, Germaniyaning KfW Bank, Yaponiyaning Mizuho Bank va AQShdagi Bank of America kabi yirik moliya institutlari raqamli vositalar yordamida ekologik moliyalashtirishda yetakchilik qilmoqda. Ularning tajribasi O'zbekiston bank sektorida ushbu yo'nalishni mustahkamlash uchun muhim yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mahalliy banklar — "Sanoatqurilishbank", "Xalq banki", "Agrobank" va boshqalar — o'z mahsulotlarini ekologik yo'nalishga moslashtirib, yashil kreditlar hamda ekopotekalar orqali jamiyatda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli yechimlar bank tizimida barqarorlikni ta'minlashda eng muhim omillardan biridir. Raqamli texnologiyalar orqali bank xizmatlari tez, xavfsiz va qulay shaklda taqdim etilmoqda. Bu esa nafaqat mijozlar ishonchini oshiradi, balki banklarning moliyaviy barqarorligini ham mustahkamlaydi.

Raqamli transformatsiya banklarga ichki jarayonlarni avtomatlashtirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt va "big data" texnologiyalari yordamida risklarni oldindan aniqlash, kredit portfellarini samarali boshqarish hamda yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish osonlashmoqda.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda raqamli rivojlanish sezilarli darajada tezlashgan. Mobil ilovalar, onlayn to'lov tizimlari, raqamli kartalar va masofaviy xizmatlar orqali aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu holat moliyaviy inklyuziyaning oshishiga, demak, iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, raqamli yechimlar banklarning samarali faoliyat yuritishini, mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berishini va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi. Quyidagi takliflar mazkur jarayonni yanada samarali amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega:

- banklarda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini jadallashtirish;
- xodimlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish;
- mahalliy banklarda xalqaro tajribalarni kengroq qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. King. The End of Alchemy: Money, Banking, and the Future of the Global Economy. – New York: W.W. Norton & Company, 2016. – 448 b.
2. C. Goodhart, D. Tsomocos. Financial Stability in Practice: Theory and Policy Applications. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 312 b.
3. D. Arner, J. Barberis, R. Buckley. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? – Georgetown Journal of International Law. – 2016. – №47. – P. 1271–1319.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: Implications of Fintech Developments for Banks and Bank Supervisors. – Bank for International Settlements, Basel, 2018. – 54 b.
5. M. Chishti, J. Barberis. The Fintech Book: The Financial Technology Handbook for Investors, Entrepreneurs and Visionaries. – Chichester: John Wiley & Sons, 2016. – 312 b.
6. International Monetary Fund. The Impact of Fintech on Financial Stability. – Washington, D.C.: IMF Working Paper, 2021. – 78 b.
7. C. Lagarde. Central Banking and Fintech: A Brave New World. – IMF Speech, Singapore, 2018. – 16 b.
8. S. Claessens, N. van Horen. Fintech Credit: Market Structure, Business Models and Financial Stability Implications. – BIS Working Papers №125. – Basel, 2020. – 62 b.
9. D. Schindler, L. Schüwer. Digital Transformation and Bank Stability: Evidence from European Banks. – Journal of Banking Regulation. – London: Palgrave Macmillan, 2022. – 24 b.
10. <https://www.irs.gov/inflation-reduction-act-of-2022>
11. <https://www.sqb.uz/oz/news/1266>
12. <https://xb.uz/oz/news/eco-ipo-program>
13. <https://asakabank.uz/uz/page/carbon-loans>
14. <https://ipoteka.uz/uz/news/green-mortgage>
15. <https://agrobank.uz/uz/news/eko-loans>
16. www.katm.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
